XALQ DEPUTATLARI CHIRCHIQ SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 28-yanvar VII-3-2-10-150-K/25 Chirchiq shahar

Chirchiq shahri ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yoʻl xaritasi hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastr agentligining 2024-yil 4-apreldagi Toshkent viloyati hokimligiga yuborilgan 03/08-3236-sonli hamda Respublika aerogeodeziya markazining 2024-yil 19-avgustdagi Chirchiq shahar hokimiga yuborilgan 03-1491-sonli xat orqali yuborilgan maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Chirchiq shahari maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha shahar komissiyasining 2024-yil 18-oktabrdagi 187-sonli yigʻilish bayoni maʼqullansin.

4. Chirchiq shahari maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha shahar komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan Chirchiq shahri bilan chegaradosh boʻlgan Boʻstonliq, Yuqori Chirchiq va Qibray tumanlari oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yoʻl va boshqa tabiiy va sunʼiy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining shahar boʻlimi boshligʻi D.Parpiyevga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Makur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyalari hamda shahar hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdigʻi Xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

Kengash raisi M.Abduraximov

Xalq deputatlari Chirchiq shahar
Kengashining
2025-yil 28-yanvardagi
VII-3-2-10-150-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati Chirchiq shahari maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining

T A V S I F I

Chirchiq shahri hamda Qibray, Boʻstonliq tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, Katta Keles kanalining sharq tomonida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 41°30'52,569", sharqiy uzoqlik koordinatalari 69°37'04,807").*

A dan B gacha Boʻstonliq tumani yerlari bilan 1 - 15 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 55 metr masofada Katta Keles kanalidan Derivatsiya kanaliga oʻtadi, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1850 metr masofani oʻtib, kanal bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°31'42,157", sharqiy uzoqlik 69°37'49,424").*

2-nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 50 metr masofada Derivatsiya kanalini, qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, tomorqa devoriga tutashadi va devor bo‘ylab yo‘nalishni oʻzgartirmagan holda 40 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 24 metr masofani oʻtadi, soʻng yoʻldan tomorqa devoriga va devor boʻylab janubiy-sharqiy yoʻnalishda 45 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 40 metr masofada devor bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°31'41,753", sharqiy uzoqlik 69°37'55,751").*

3-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devori boʻylab janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 32 metr, keyin umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 208 metr masofani oʻtib, so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 23 metr masofada tomorqa devoriga tutashadi va tomorqa devori bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 253 metr masofani o‘tib, tomorqa devori bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°31'29,133", sharqiy uzoqlik 69°37'45,073").*

4-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devor boʻylab umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 507 metr masofani oʻtadi, keyin sharqiy yoʻnalishda 237 metr masofani oʻtib, devorda joylashgan 5-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°31'19,184", sharqiy uzoqlik 69°38'10,821").*

5-nuqtadan chegara chizigʻi devor boʻylab janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 21 metr masofada temir yoʻl boʻyiga oʻtadi va temir yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 28 metr masofada Ozodboshsoy daryosiga oʻtadi va

daryoning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 440 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, avtomobil yoʻli koʻprigi joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°31'07,272", sharqiy uzoqlik 69°38'22,546").*

6-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻli koʻprigining janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 33 metr masofada Ozodboshisoy daryosiga oʻtadi va daryoning suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 609 metr masofani oʻtib, daryo boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°30'51,784", sharqiy uzoqlik 69°38'33,950").*

7-nuqtadan chegara chizigʻi quruq chiziq orqali janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 97 metr masofada Chirchiq daryosiga oʻtadi va daryoning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1475 metr masofani oʻtib, daryo boʻyida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°30'23,377", sharqiy uzoqlik 69°37'47,221").*

8-nuqtadan chegara chizigʻi Chirchiq daryosining suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan janubiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1907 metr masofani oʻtib, daryo boʻyida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°29'36,942", sharqiy uzoqlik 69°36'57,320").*

9-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali janubiy-sharqiy yoʻnalishda 37 metr masofada Chirchiq daryosi oʻzaniga oʻtadi, keyin daryoning oʻzani boʻylab umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 751 metr masofada Chirchiq daryosiga tutashadi va daryoning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 765 metr masofani oʻtib, daryo boʻyida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°28'58,619", sharqiy uzoqlik 69°36'32,378").*

10-nuqtadan chegara chizigʻi Chirchiq daryosining suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1857 metr masofani oʻtib, daryo boʻyida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°28'02,024", sharqiy uzoqlik 69°36'09,658").*

11-nuqtadan chegara chizigʻi Chirchiq daryosining suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1638 metr masofani oʻtib, daryo boʻyida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°27'12,947", sharqiy uzoqlik 69°35'53,082").*

12-nuqtadan chegara chizigʻi Chirchiq daryosining suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2893 metr masofani oʻtib, R-14 avtomobil yoʻli koʻprigida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°25'53,909", sharqiy uzoqlik 69°35'11,359").*

13-nuqtadan chegara chizigʻi R-14 avtomobil yoʻli koʻprigining sharq tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 143 metr masofada avtomobil yoʻli koʻprigiga oʻtadi va koʻprikning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 48 metr masofada

Chirchiq daryosiga tutashadi, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda daryoning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 196 metr masofani oʻtib, daryo boʻyida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°25'52,059", sharqiy uzoqlik 69°35'20,645").*

14-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali janubiy-sharqiy yoʻnalishda 23 metr masofada Chirchiq daryosi boʻyidan avtomobil yoʻliga oʻtadi va yoʻlning shimol tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 264 metr masofani oʻtib, Chirchiq shahri hamda Boʻstonliq, Yuqori Chirchiq tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, daryo boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°25'46,322", sharqiy uzoqlik 69°35'12,721").*

B dan D gacha Yuqori Chirchiq tumani yerlari bilan 15 - 17 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

15-nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy yoʻnalishda Qorasuv daryosining suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 82 metr masofani oʻtadi, keyin toʻgʻri chiziq orqali gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 67 metr masofada Qorasuv daryosini, R-14 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, Chirchiq daryosiga tutashadi va daryoning suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 30 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 190 metr masofada R-14 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, Chirchiq daryosi boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°25'49,523", sharqiy uzoqlik 69° 35'01,591").*

16-nuqtadan chegara chizigʻi Chirchiq daryosining suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan umumiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 275 metr masofani oʻtib, keyin toʻgri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 66 metr masofada Chirchiq daryosini kesib oʻtadi, soʻng daryoning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 565 metr masofani oʻtib, Chirchiq shahri hamda Yuqori Chirchiq, Qibray tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, daryo boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°25'41,285", sharqiy uzoqlik 69°34'29,638").*

D dan A gacha Qibray tumani yerlari bilan 17 - 1 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

17-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 55 metr masofada avtomobil yoʻliga tutashadi va yoʻlning janub tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 668 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 15 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°25'28,407", sharqiy uzoqlik 69°34'05,241").*

18-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 592 metr, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 431 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°25'55,429", sharqiy uzoqlik 69°34'24,933").*

19-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 298 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 279 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 325 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°26'02,917", sharqiy uzoqlik 69°34'09,306").*

20-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 42 metr masofada ariqqa oʻtadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 116 metr masofani oʻtib, keyin tomorqa chegarasiga oʻtadi va tomorqa chegarasi boʻylab shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 97 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, soʻng qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 18 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°26'03,768", sharqiy uzoqlik 69°34'01,426").*

21-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlidan tomorqa devoriga oʻtadi va devor boʻylab shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 60 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 67 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 92 metr masofada qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 148 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°26'11,711", sharqiy uzoqlik 69°33'54,965").*

22-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 506 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 40 metr masofada ariqni kesib oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°26'04,364", sharqiy uzoqlik 69°33'35,118").*

23-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 10 metr masofani oʻtib, keyin qabriston devoriga tutashadi va devor boʻylab shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 235 metr masofada korxona devoriga tutashadi va devor boʻylab gʻarbiy-janubiy-gaʻrbiy yoʻnalishda 338 metr masofani oʻtib, soʻng quruq chiziq orqali shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 44 metr masofani oʻtib, temir yoʻli boʻyida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°26'06,133", sharqiy uzoqlik 69°33'14,160").*

24-nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻlining janub tomoni bilan umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 2150 metr masofani oʻtib, temir yoʻli boʻyida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°25'20,381", sharqiy uzoqlik 69°32'04,496").*

25-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 32 metr masofada qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan umumiy shimoliy yoʻnalishda 467 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°25'35,355", sharqiy uzoqlik 69°32'00,079").*

26-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 7 metr masofani oʻtib, keyin avtomobil yoʻlini kesib oʻtib tomorqa

devoriga tutashadi va devor boʻylab shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 136 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 30 metr masofada Boʻzsuv kanalini kesib oʻtib, soʻng kanalga tutashadi va shimoliy-sharqiy yoʻnalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 75 metr masofani oʻtib, soʻngra korxona devoriga tutashadi va devor boʻylab shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 187 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 91 metr, soʻng shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 136 metr, soʻngra shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 76 metr, keyin umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 322 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°25'55,906", sharqiy uzoqlik 69°31'39,707").*

27-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 978 metr, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda 458 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°26'35,990", sharqiy uzoqlik 69°32'04,008").*

28-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali shimoliy yoʻnalishda 73 metr masofada Zax kanali, qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, keyin qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 505 metr, soʻng yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 226 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°26'56,412", sharqiy uzoqlik 69°32'02,003").*

29-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali shimoliy yoʻnalishda 30 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtadi va avtomobil yoʻliga tutashadi, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 188 metr masofani oʻtib, soʻng qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy yoʻnalishada 379 metr, soʻngra yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 232 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°27'13,259", sharqiy uzoqlik 69°32'05,173").*

30-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 174 metr masofada Iskandar arigʻiga tutashadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 386 metr masofani oʻtib, keyin tomorqa chegarasiga tutashadi va chegara boʻylab shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 642 metr masofani oʻtib, tomorqa chegarasi boʻyida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°27'45,429", sharqiy uzoqlik 69°31'53,152").*

31-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 3985 metr masofada avtomobil yoʻlini, quruq soylarni va dala tuproq yoʻllarini kesib oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°29'22,780", sharqiy uzoqlik 69°33'45,974").*

32-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 439 metr masofani oʻtib, Katta Keles kanali boʻyida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°29'35,671", sharqiy uzoqlik 69°33'42,674").*


33-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Katta Keles kanalining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 1977 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli koʻprigida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°30'01,951", sharqiy uzoqlik 69°34'59,077").*

34-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, keyin Katta Keles kanaliga tutashadi va umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3437 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan boshlangʻich 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°30'52,569", sharqiy uzoqlik 69°37'04,807").*

Xalq deputatlari Chirchiq shahar
Kengashining
2025-yil 28-yanvardagi
VII-3-2-10-150-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Toshkent viloyati Chirchiq shahari ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik

CHIZMASI



Shartli belgilar:

Chirchiq shahari ma'muriy-hududiy chegara chizig'i

1 *Chirchiq shahari ma'muriy-hududiy chegarasining burilish nuqtasi va raqami*